O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI XORAZM VILOYATI
XALQ DEPUTATLARI TUPROQQAL’A TUMAN KENGASHI

QARORI

220400, Tuproqqal’a tumani, Pitnak shahri, Mustaqillik ko’chasi, 1-uy, tel:30-54-678, faks: 30-53-315

2022 - yil 16 - fevral VI-51-31-12-218-K/22 Tuproqqal'a tumani hokimligi

Tuproqqal’a tumanidagi aholi punktlarining nomlarini qayta nomlash to‘g‘risida

O‘zbekiston Respublikasining “Geografik obyektlarning nomlari to‘g‘risida”gi Qonuni va O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2012-yil 16-oktabrdagi O‘zbekiston Respublikasi Qonuniga muvofiq “Geografik obyeklarning nomlash to‘g‘risidagi ishlarni tartibga solish chora-tadbirlari haqida”gi 295-son qarori ijrosini ta’minlash maqsadida O‘zbekiston Respublikasi Davlat soliq qo‘mitasi huzuridagi Geografik obyektlarga nom berish va ularni qayta nomlash to‘g‘risidagi takliflarini davlat ekspertizasidan o‘tkazish ekspert komissiyasining 2020-yil 25-noyabrdagi 4-5267-sonli hamda tuman hokimligining aholi punktlarining nomlarini qayta nomlash to‘g‘risidagi taklifini ko‘rib chiqib, “Mahalliy davlat hokimiyati to‘g‘risida”gi Qonunining 6-moddasiga asosan Xalq deputatlari tuman Kengashi

QAROR QILADI:

1. Geografik obyektlarni nomlash va ularni qayta nomlash masalalari bo‘yicha komissiyasining xulosasiga muvofiq tuman hokimining aholi punktlarining tarkibiy qismlariga nom berish, ularning nomlarini o‘zgartirish to‘g‘risidagi taklifi ma’qullansin.

2. Tumandagi nomlari o‘zgargan aholi punktlarining ro‘yxati ilovaga muvofiq tasdiqlansin.

3. Tuman statistika bo‘limi (M.Satimov), tuman qurilish bo‘limi (J.Abbazov), tuman hokimligi bilan birgalikda nomlari o‘zgargan aholi punktlarini

davlat ro‘yxatidan o‘tkazish va elektron bazani shakllantirish, ish yuritish hujjatlariga tegishli o‘zgartirishlar kiritish bilan bog‘liq barcha tadbirlarni amalga oshirsin.

4. Mazkur qaror matbuotda rasman e’lon qilinsin va hokimlikning rasmiy veb-saytiga joylashtirilsin, qaror rasman e’lon qilingan kundan boshlab kuchga kirsin.

5. Ushbu qarorning ijrosini nazorat qilish Xalq deputatlari tuman Kengashining Ijtimoiy-madaniy rivojlanish, xotin-qizlar va yoshlar masalalari hamda nodavlat-notijorat tashkilotlari va fuqarolik jamiyatining boshqa institutlari bilan hamkorlikda ishlash masalalari bo‘yicha doimiy komissiyasi Z.Matkarimov, Xalq deputatlari tuman Kengashining Qonuniylikni ta’minlash va korrupsiyaga qarshi kurashish masalalari bo‘yicha doimiy komissiyasi M.Ibragimov zimmasiga yuklatilsin.

Туман ҳокими **А.Салаев**

Халқ депутатлари Тупроққалъа
туман Кенгашининг
2022 йил 16 февралдаги
VI-51-31-12-218-K/22-сон қарорига
1-илова

Tuproqqal’a tumanidagi aholi punktlari nomlarining ro‘yxati

T/r	Geografik obyektning turi	Joylashgan o‘rni	Geografik obyektning amaldagi nomi	Komissiyasi tomonidan berilgan taklif	Ekspert komissiyasining xulosasi
1	Aholi punkti	Pitnak qishlog‘i	Kuraklar	-	Qonun hujjatlari talablariga muvofiq
2	Aholi punkti	Pitnak qishlog‘i	Sayapir	-	Sayapir- Geografik obyektlar nomlarining o‘zbek tilida yozilishi qoidalari asosida normallashtirildi, qonun hujjatlari talablariga muvofiq
3	Aholi punkti	Pitnak qishlog‘i	Saidlar	-	Qonun hujjatlari talablariga muvofiq
4	Aholi punkti	Pitnak qishlog‘i	Istiqbol	-	Qonun hujjatlari talablariga muvofiq
5	Aholi punkti	Pitnak qishlog‘i	Oyoqovva	-	Qonun hujjatlari talablariga muvofiq
6	Aholi punkti	Pitnak qishlog‘i	Shexlar	-	Qonun hujjatlari talablariga muvofiq
7	Aholi punkti	Pitnak qishlog‘i	Soyotlar	-	Soyodlar- Geografik obyektlar nomlarining o‘zbek tilida yozilishi qoidalari asosida normallashtirildi, qonun hujjatlari talablariga muvofiq
8	Aholi punkti	Pitnak qishlog‘i	Arablar	-	Qonun hujjatlari talablariga muvofiq
9	Aholi punkti	Pitnak qishlog‘i	Kichik Qangli	-	Qonun hujjatlari talablariga muvofiq
10	Aholi punkti	Pitnak qishlog‘i	Pastom	-	Qonun hujjatlari talablariga muvofiq
11	Aholi punkti	Pitnak qishlog‘i	Obod	-	Qonun hujjatlari talablariga muvofiq
12	Aholi punkti	Tuproqqal’a qishlog‘i	Tuproqqal’a	Xiva	Xiva-qonun hujjatlari talablariga muvofiq

13	Aholi punkti	Tuproqqal’a qishlog‘i	Sartarosh	-	Qonun hujjatlari talablariga muvofiq
14	Aholi punkti	Tuproqqal’a qishlog‘i	Dashqa’la	-	Qonun hujjatlari talablariga muvofiq
15	Aholi punkti	Sarmay qishlog‘i	Nukus	-	Qonun hujjatlari talablariga muvofiq
16	Aholi punkti	Sarmay qishlog‘i	Mechikli	Meshikli	Meshikli -qonun hujjatlari talablariga muvofiq
17	Aholi punkti	Sarmay qishlog‘i	Echki jar	Eskijar	Eskijar- qonun hujjatlari talablariga muvofiq